



KATALIZ VA KATALIZATORLAR HAQIDA TUSHUNCHA

*Shamsiddinov Muxammadjon Ziyavidinovich**Toshkent shaxri Yashnaobod tumani**Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti Akademik litseyi**kimyo fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: 1812 yilda Krixgoff «Texnologiya jurnalida» suyultirilgan mineral kislotalar ta'sirida kraxmalni glyukozagacha gidrolizlanishi xaqida o`z kuzatishlarini bayon qiladi. Ya Berselius 1836- yilda kimyo faniga «kataliz» atamasini kiritadi. P Sabatye va J Sanderan 1897 - yilda nikelni hidrogenlash reaksiyasi uchun yaxshi katalizator ekanligini kashf etdilar. P. Sabatye «Organik kimyoda kataliz» kitobida XX asr boshlarida katalizni taraqqiyot tarixini to`liq yoritib beradi. 1920 -19 25 - yillar mobaynida yog`larni hidrolizlash reaksiyasida katalizator sifatida nikel qo`llanildi.

Kalit so'zlar: Katalizatorlar, kataliz, uglerod monooksidi va vodorod, kimyoviy tajribalar, sintez jarayoni, reaksiya tezligi.

Reaksiyani tezlatuvchi ammo miqdor jixatidan o`zgarmay qoladigan moddalar xaqidagi tushuncha - stexiometrik kimyo vujudga kelishi bilan paydo bo`ldi. Krixgoff, Tenf, Devi va Debereynerni kataliz soxasida ishlari natijasi sifatida kataliz soxasidagi ta`limot vujudga keldi. XIX asrning 30 - yillariga kelib o`sha davrlardagi katalitik ishlarni birlashtirish va umumlashtirish natijasida kimyoda kataliz davri boshlandi. Dastlab katalizator sifatida toza moddalar qo`llanilgan. Ko`p komponentli katalizatorlar asosan 1920 - yildan keyin qo`llanila boshlandi. Baden anilin va soda fabrikasida 1923 - yili uglerod monooksidni vodorod bilan yuqori bosim ostida ishqor eritmasi bilan promotorlangan rux va xrom oksidi aralashmasi bilan qaytarish yo`li bilan metanol sintez qilindi. 1927 - yilga kelib Fisher Tropish uglerod monooksidi va vodorod katalizatorlaridan foydalanib sintetik uglevodorod hosil qiladilar. Ayrim moddalarni- agentlarni kimyoviy reaksiyalarni tezlatish haqidagi tushuncha XVI - XVII asrda paydo bo`lgan. Ammo bu davrda qo`shimcha reaksiyadagi bunday «agentlar» - reagent bir deb qaralgan [1]. Masalan, spirtdan efir olishda qo`llanilgan sulfat kislota Gey - Lyussakgacha xam agent xam reagent deb qaralgan. Berselius birinchi bo`lib 1835 - yilda «katalizator» atamasini fanga kiritdi. Katalizatori u ayni haroratda o`zini ishtiroki bilan yaqinlikni qo`zg`atuvchi modda deb ta`riflaydi. B.Ostvald 1895 - yil katalizatorlar reaksiya tezligini oshiradigan, ammo uni energetik tasnifini o`zgartirmaydigan moddalar deb hisoblaydi. Keyinchalik u yangicha katalizator : «katalizator kimyoviy reaksiya tezligini o`zgartiradigan ammo reaksiyani oxirgi maxsuloti tarkibiga kirmaydigan modda» deb - ta`rifladi. Katalitik jarayonni kinetik jixatiga e`tiborni qaratdi. [2] Xozirgi paytda katalizator deb reaksiya tezligini




o`zgartiradigan, lekin o`zi reaksiya natijasida kimyoviy jixatdan o`zgarmaydigan moddaga aytildi. Masalan:



Reaksiya tezligini o`zgartiradigan, lekin reaksiya natijasida kimyoviy jihatdan o`zgarmaydigan moddlar katalizatorlar deb ataladi. Reaksiya tezligini katalizatorlar ishtirokida o`zgarishi hodisasi kataliz deb ataladi. Katalizatorlar ishtirokida boradigan reaksiyalar katalitik reaksiyalar deb ataladi. Kimyo sanoatida katalizatorlar keng miqyosda qo'llaniladi. Katalizatorlar ta'sirida reaksiyalar million va undan ko'p marta tezlashishi mumkin. Kataliz 2 turga: gamogen va geterogen katalizga bo'linadi. Gamogen katalizda katalizitor va reaksiyaga kirishuvchi moddalar bitta fazani (gaz yoki eritma) tashkil etadi. Misol: Bu yerda reaksiyaga kirishayotgan moddalar gaz, katalizator ham gaz. Vodorod peroksidning suvli eritmasining katalistik parchalanish xizmat qilishi mumkin. $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ MoO_4^{2-} ionlari vodorod pereoksidining katalistik parchalanishiga sababchi bo'ladi. Geterogen katalizda esa katalizatorning o`zi mustaqil fazani tashkil etadi. Misol: Bu erda reaksiyaga kirishayotgan moddalar gaz, katalizator qattiq modda. Geterogen katalizdan kimyo sanoatida keng foydalilanadi. Hozirgi vaqtda kimyo sanoatida ishlab chikariladigan maxsulotlarning asosiy ko'pchiligi geterogen kataliz yordamida olinadi. Geterogen katalitik reaksiyalarga misol sifatida sulfat kislotada ishlab chiqarishning kontakt usulida oltingugurt (IV) oksidning sulfat angidridgacha oksidlanish, ammiak sintezini, nitrat kislotasi olishdagi ammiakning oksidlanishi, ammiak sintezini nitrat kislotasi olishdagi ammiakning oksidlanishini olsa bo'ladi. Katalizatorlar ta'sirida reaksiya tezligi oshsa, bundan katalizni musbat kataliz yoki to'g'ridan to'g'ri kataliz deb nomlanadi. [3]

Reaksiya tezligi katalizatorlar ishtirokida pasaysa, uni manfiy kataliz yoki ingibitor deb yuritiladi. Katalizatorlar ishtirokida sodir bo'ladigan kimyoviy reaksiyalar katalitik reaksiyalar deyiladi. Katalizatorning o`zi reaksiyada sariflanmaydi va oxirgi mahsulotlar tarkibiga kirmaydi. Masalan, sulfit kislotasi eritmasiga gliserin, etil sperti va qalay (II)-xlorid qo'sqilsa, sulfitning xavo kislorodi ta'sirida oksidlanishi keskin pasayib ketadi. Reaksiyasi juda oz miqdor CuSO_4 ta'sirida keskin ravishda tezlashadi. [5] Katalizator faqat kimyoviy jihatdan o`zgarmaydi, ammo uning fizik holati o`zgarishi mumkin. Katalizator reaksiya oxirida uz tarkibi va miqdorini o`zgartirmasa ham reaksiyaning oralik bosqichlarida ishtirok etadi. $A+V=AV$ reaksiyasi o`z-o`zicha juda sust borib, katalizator (K) ishtirokida tez ketadi. Reaksiyaning tezlashishiga sabab reaksiyaning oraliq bosqichida katalizatorning ishtirok etishidir: Katalizatorlar reaksiyaga kirishayotgan moddalarning aktivlanish energiyasini pasaytirib yuboradi. Ingibitorlar aksincha reaksiyaga kirishayotgan moddalarning aktivlanish energiyasini oshirib yuboradi. [4]



Bu sxema katalizatorning reaksiya oxirida kimyoviy jihatdan o'zgarmay qolishini va reaksiya tezligining katalizator miqdoriga proparsional ekanligini ko'rsatadi. Avtokataliz -kimyoviy reaksiyani uning molekulalaridan biri yordamida katalitik tezlashishidir.

Masalan: protonlar, protonlar /H+/ murakkab efirlarning gidrolizini tezlashtirishi mumkin. Avtokatalizda bu protonlar hosil bo'lgan maxsulotning dissotsiyalanishi hisobiga hosil bo'ladi. Chunonchi, etilasetatning gidrolizlanish maxsuloti -sirka kislota proton /gidroksoniy ionı/ hosil qilib dissotsiyalanadi:



hosil bo'lgan protonlar gidroliz reaksiyasini tezlashtiradi.

Avtokatalitik reaksiyalarning xarakterli xususiyati shundan iboratki, ular katalizatorning konsentratsiyasini o'zgaruvchan oshishi sharoitida beradi. Shu sababli Avtokatalitik reaksiyaning tezligi boshlangich davrda oshib boradi, o'zaro ta'sir etuvchi rengengarning konsentratsiyasi kamaygach reaksiya tezligi sekinlashadi. Biologik sistemalarda kataliz juda katta rol o'yaydi. Ovqat xazm qilish sistemasida, qonda odam va xayvonlarning xujayralarida boradigan ko'pgina kimyoviy reaksiyalar katalitik reaksiyalar hisoblanadi. Bu yerda ishtirok etadigan katalizatorlar ularni fermentlar deb yuritiladi. Ular oddiy yoki murakkab oksillardan iborat. Oshqozon suyuqligida bo'ladigan pepsin esa oksillarni parchalanishini tezlashtiradi. Odam organizmida 30000 ga yaqin turli-tuman fermentlar bo'lib ulardan har biri o'ziga xos reaksiyalar uchun katalizatorlik vazifasini bajaradi. Fermentativ reaksiyalar katalitik reaksiyalarning umumiy qonuniyatlariga bo'y sunadi. Shu bilan bir qatorda biologik katalizatorlar bilan fermentativ reaksiyalarning anorganik katalizdan farq qiladigan tomonlari ham bor. Ayni reaksiya uchun o'zi katalizator emas lekin katalizatorlarga ozgina qo'shilganda katalizatorlarning aktivligini bir necha barobar oshirib yuboradigan moddalar promotorlar deyiladi. Misol: Ushbu reaksiyada platina katalizator, unga temir, alyuminiy .qo'shilsa platinani katalitik aktivligi bir necha barobar ortib ketadi. Bu erda temir, alyuminiy promotor vazivasini bajaradi. Temir va alyuminiy bu reaksiyaga o'zi katalizatorlik qila olmaydi. Ba'zi moddalar qattiq katalizatorlarning aktivligini kamaytiradi yoki butunlay yo'qotadi. Bunday moddalar katalitik zaharlar deyiladi. Misol: Mishyak, simob, oltingugurt, qo'rg'oshin birikmalarini, sianli birikmalarni keltirish mumkin. Ular ayniqsa platina katalizatoriga tez ta'sir ko'rsatadi. ushbu reaksiyaga platina katalizator, agar reaksiyaga kirishayotgan moddalarga katalitik zahar qo'shilib qolsa katalizator bilan katalitik zahar o'rtasida reaksya ketadi. Ammiak hosil bo'lish reaksiyasiga katalizatorlik qila olmaydi. Ya'ni katalizator zaharlandi, katalizatorlik xususiyatini to'xtatdi degani.

Xulosa:

Katalizatorlar tanlab ta'sir etadi, shu sababli turli katalizatorlarni ishlatib, bitta moddaning o'zidan turli xil mahsulotlar olish mumkin. Misol: Reaksiyalardan ko'rinish turibdiki, bir hil haroratda turli xil katalizatorlar ishlatib, bitta moddadan turli xil moddalar olish mumkin. Bu katalizatorni tanlab ta'sir etishi deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Nishonov, Sh.Mamajonov, B.Xo`jayev «Kimyo o`qitish metodikasi» Toshkent, O`qituvchi 2002, 112 b.[1]
2. A.Mavlonov S.Abdalova «Davlat Ta`lim Standartlari asosida pedagogik texnologiyani shakllantirish va amaliyotga joriy etish». «Ta`lim texnologiyalari», «Ta`lim muammolari» Toshkent, 2009. 96 b. ilmiy-uslubiy jurnal.[2]
3. B.Bozorov «Kimyoning asosiy tushuncha va qonunlari mavzusini o`qitishda pedagogik texnologiyalarning o`rni». Umum ta`lim fanlari metodikasi ilmiy-uslubiy jurnal N:8 (44) 2014 y. Toshkent. [3]
4. S.Mizrayeva «Yangi pedagogik texnologiyalar va kimyo» maktabda kimyo 3(27) son 2011, 32 b.[4]
5. C. Xafizov «Dars jarayonida AKT dan foydalanish metodikasi» umum ta`lim fanlari metodikasi ma'naviy, ma'rifiy ilmiy metodik nashr, 326 N: 1(37) 2014 yil Toshkent 78 b.[5]